




SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-fevral oyi
uchun dastlabki
ma'lumot)*







O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.


2021- yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **65 123,2** ming. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **15 384,2** ming. AQSh dollariga yoki **30,9** % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-fevral, ming. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
 Tashqi savdo aylanmasi	49 739,0	65 123,2	130,9 %	x
Eksport 	25 770,4	26 858,4	104,2 %	100,0
 tovarlar	25 402,7	26 691,0	105,1	99,4
 xizmatlar	367,7	167,4	45,5	0,6
Import	23 968,6	38 264,8	159,6 %	100,0
 tovarlar	23 957,8	38 247,4	159,6	100,0
 xizmatlar	10,8	17,4	161,1	0,0
 Saldo	1 801,8	-11 406,4	x	x





Ma'lumot uchun: Surxondaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **26 858,4** ming. AQSh dollariga (**4,2** % ga ko'paydi) va import hajmi **38 264,8** ming. AQSh dollariga (**59,6** % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida - **11 406,4** ming. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

SURXONDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-fevral, ming.

AQSh dollari)



Xitoy Xalq Respublikasi

TSA – 29 674,3
Eksport – 14 290,6
Import – 15 383,7



Qozog'iston

TSA – 7 507,2
Eksport – 1 367,3
Import – 6 139,8



Rossiya Federatsiyasi

TSA – 7 325,8
Eksport – 2 799,9
Import – 4 525,9



Pokiston

TSA – 4 613,0
Eksport – 3 680,1
Import – 932,9



Germaniya

TSA – 4 114,3
Eksport – 26,0
Import – 4 088,3



Turkiya

TSA – 2 966,9
Eksport – 1 407,6
Import – 1 559,3



Afg'oniston

TSA – 2 657,4
Eksport – 2 594,2
Import – 63,2



Tojikiston

TSA – 1 641,8
Eksport – 366,6
Import – 1 275,2



Ukraina

TSA – 1 315,1
Eksport – 57,2
Import – 1 257,7



Italiya

TSA – 496,0
Eksport – 0,0
Import – 496,0





Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Afg'oniston, Pokiston, AQSH davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.




20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA UCHTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar- fevral)

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg'oniston (2 747,2 ming. AQSh dollari), Pokiston (2 531,0 ming. AQSh dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.




Surxondaryo viloyati, jahonning 35 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (45,6 %), Qozog'istonda (11,5 %), Rossiya Federatsiyasida (11,2 %), Pokistonda (7,1 %), Germaniya (6,3), Turkiyada (4,6 %) va Afg'oniston (4,1 %) qayd etilgan.






SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, ming. AQSh dollari)







	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Xitoy Xalq Respublikasi	24 719,9	24 551,5	29 674,3
	<i>Eksport</i>	6 564,2	12 087,3	14 290,6
	<i>Import</i>	18 155,7	12 464,3	15 383,7
	Qozog'iston	6 650,3	3 348,6	7 507,2
	<i>Eksport</i>	1 738,5	294,6	1 367,3
	<i>Import</i>	4 911,8	3 054,0	6 139,8
	Rossiya Federatsiyasi	4 977,9	6 186,8	7 325,8
	<i>Eksport</i>	3 123,4	2 749,2	2 800,0
	<i>Import</i>	1 854,5	3 437,6	4 525,9
	Pokiston	4 910,1	4 089,6	4 613,0
	<i>Eksport</i>	3 170,9	3 288,4	3 680,1
	<i>Import</i>	1 739,2	801,2	932,9
	Germaniya	219,9	68,1	4 114,3
	<i>Eksport</i>	67,2	-	26,0
	<i>Import</i>	152,7	68,1	4 088,3
	Turkiya	2 079,6	1 584,9	2 966,9
	<i>Eksport</i>	213,0	272,2	1 407,6
	<i>Import</i>	1 866,7	1 312,7	1 559,3
	Afg'oniston	4 047,8	4 091,2	2 657,4
	<i>Eksport</i>	3 993,2	4 086,9	2 594,2
	<i>Import</i>	54,6	4,3	63,2
	Tojikiston	2 177,1	881,4	1 641,8
	<i>Eksport</i>	889,0	703,4	366,6
	<i>Import</i>	1 288,1	178,0	1 275,2
	Ukraina	1 581,2	526,5	1 315,1
	<i>Eksport</i>	47,6	24,5	57,2
	<i>Import</i>	1 533,5	502,1	1 257,9
	Italiya	320,9	593,9	496,0
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	320,9	593,9	496,0






SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, ming. AQSh dollari)


	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Eron	1201,6	449,5	481,9
	<i>Eksport</i>	200,2	-	-
	<i>Import</i>	1001,4	449,5	481,9
	Hindiston	820,7	329,2	303,2
	<i>Eksport</i>	-	63,2	-
	<i>Import</i>	820,7	266,0	303,2
	Xorvatiya	-	-	250,7
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	-	250,7
	Avstriya	105,4	-	248,6
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	105,4	-	248,6
	Belorussiya	3304,6	201,2	221,5
	<i>Eksport</i>	61,0	15,8	23,5
	<i>Import</i>	3243,6	185,4	197,9
	Qirg'iz Respublikasi	30,3	1741,6	200,3
	<i>Eksport</i>	30,3	1669,7	-
	<i>Import</i>	-	72,0	200,3
	Belgiya	-	-	195,8
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	-	195,8
	Niderlandiya	0,4	-	188,5
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,4	-	188,5
	Turkmaniston	1160,4	149,1	166,6
	<i>Eksport</i>	-	3,8	10,8
	<i>Import</i>	1160,4	145,2	155,9
	Polsha	77,1	-	81,7
	<i>Eksport</i>	76,3	-	30,3
	<i>Import</i>	0,9	-	51,4





SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-fevral 2021- yil)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	65 123,2	130,9
Termiz sh.	7 831,1	78,6
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	1 598,1	213,7
Angor	560,6	68,0
Bandixon	245,4	-
Boysun	476,7	110,1
Denov	5 975,6	107,3
Jarqo'rg'on	5 771,7	97,8
Qumqo'rg'on	1 396,8	91,7
Qiziriq	5 899,9	545,9
Muzrabot	9 690,2	370,9
Sariosiyo	7 991,1	224,0
Termiz	11 148,9	157,7
Uzun	919,1	148,4
Sherobod	4 455,2	66,8
Sho'rchi	914,5	32,3

Eng yuqori hajm,
ming. AQSh dollari

Termiz - 11 148,9

Muzrabot - 9 690,2

Sariosiyo - 7 991,1

Eng quyi hajm,
ming. AQSh dollari

Angor - 167,6

Boysun - 84,3

Bandixon - 47,9

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Termiz tumani **17,1 %** ulush bilan **11 148,9** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Bandixon tumani **0,4 %** ulush bilan **245,4** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.







Surxondaryo viloyati tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021- yilning yanvar-fevral oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **25,7 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **1,7 %** ga ko'payib 2019- yilga nisbatan ulushi **1,8 %** ga kamaygan.

SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-fevral oylarida 2020- yilga nisbatan **6,3 %** ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi **71,7 %** ni tashkil etdi.





SURXONDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2021- yil yanvar-fevral, ming. AQSh dollari)



Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-fevral holatiga **18 446,0** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport – **4 693,2** ming. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import – **13 752,8** ming. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Qozog'iston (**40,7** %), Rossiya Federatsiyasi (**39,7** %), Tojikiston (**8,9** %), Ukraina (**7,1** %) va Belarus Respublikasi (**1,2** %) davlatlari bilan qayd etildi.






SURXONDARYO VILOYATI EKSPORTI (2021- yil yanvar-fevral)



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning eksportyorlari soni **109** tani tashkil etib, ular tomonidan **26 858,4** ming. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **4,2** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,4** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**60,8** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**27,5** %) va yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyosi (**6,5** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.





SURXONDARYO VILOYATI XSST BOYICHA EKSPORT TARKIBI *(yanvar-fevral, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami eksport	25 770,4	26 858,4	125,1	104,2	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8 375,0	7 384,5	80,1	88,2	32,5	27,5
Ichimliklar va tamaki	-	92,5	-	-	-	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 459,1	1 741,1	112,9	119,3	5,7	6,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	22,7	2,9	50,1	12,8	0,1	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	215,9	-	131,8	-	0,8	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	39,2	56,1	1 264,8	143,2	0,2	0,2
Sanoat tovarlari	13 599,1	16 323,2	164,4	120,0	52,8	60,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	12,9	90,3	11,9	701,8	-	0,3
Turli xil tayyor buyumlar	1 678,8	1 000,4	3 952,9	59,6	6,5	3,7
Xizmatlar	367,7	167,4	178,9	45,5	1,4	0,6





XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-fevral)



XSST bo‘limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	6 983,6	110,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	269,3	15,7
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	131,6	138,5
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	92,5	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari		
To‘qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	1 103,1	130,7
Moy olinadigan urug‘lar va moy olinadigan mevalar	541,3	330,4
Xayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	58,1	19,2
56 bo‘limga kiritilgandan tashqari o‘g‘itlar uchun xom-ashyo va mineral xomashyo (ko‘mir,neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	38,6	26,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar		
Bo‘yoqlar, taninlar va bo‘yoqlar	5,9	-
O‘g‘itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	27,4	-
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari;hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	22,8	95,6
Birlamchi shaklda bo‘lmagan plastmassalar	0,02	-





XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-fevral)



XSST bo‘limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar	16 224,1	120,3
Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	87,8	96,1
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	4,9	-
Qog‘oz, karton va qog‘oz massasi, qog‘oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	3,3	59,6
Teri, boshqa joyda tavsiflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo‘yna	3,1	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari ham)	76,2	9,8 m.
Aniq sohalar uchun mo‘ljallangan mashinalar	13,5	3,0 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob - uskunalari	0,6	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	944,9	60,9
Poyabzal	51,9	14,3 m.
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3,2	74,4
Yo‘l anjomlari, sumkalar va shunga o‘xshash konteynerlar	0,2	-
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o‘xshash tikilgan mebel	0,1	0,1
Xizmatlar		
Sayohat	23,4	57,4
Boshqa biznes xizmatlari	35,7	112,7
Transport xizmatlari	13,0	7,7
Moliyaviy xizmatlar	95,4	75,6







MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yilning yanvar-fevralidagi **28,7 %** dan 2021- yilning yanvar-fevralida **17,5 %** ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **82,5 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-fevral, % da)

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining **53,2 %**), Pokiston (**13,7 %**), Rossiya Federatsiyasi (**10,4 %**), Afg'oniston (**9,7 %**), Turkiya (**5,2 %**), Qozog'iston (**5,1 %**) va Tojikiston (**1,4 %**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **98,7 foizni** tashkil etmoqda.





SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-fevral, yillar kesimida)




Davlatlar	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	12 087,3	14 290,6	184,1	118,2	1	1
Pokiston	3 288,4	3 680,1	103,7	111,9	3	2
Rossiya Federatsiyasi	2 749,2	2 800,0	88,0	101,8	4	3
Afgoniston	4 086,9	2 594,2	102,3	63,5	2	4
Turkiya	272,2	1 407,6	127,8	5,2 m.	8	5
Qozog'iston	294,6	1 367,3	16,9	4,6 m.	7	6
Tojikiston	703,4	366,6	79,1	52,1	6	7
AQSH	6,6	72,0	21,6	10,9 m.	18	8
Ozarbajjon	131,7	67,8	8,7 m.	51,5	10	9
Ukraina	24,5	57,2	51,4	2,3 m.	14	10





SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-fevral)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	26 858,4	104,2
Termiz sh.	1 919,2	34,7
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	735,4	114,0
Angor	560,6	75,6
Bandixon	245,4	-
Boysun	126,4	68,9
Denov	2 897,6	113,9
Jarqo'rg'on	5 111,9	106,4
Qumqo'rg'on	441,2	29,3
Qiziriq	266,2	55,1
Muzrabot	961,7	2,3 m.
Sariosiyo	5 036,4	2,8 m.
Termiz	3 490,4	3,2 m.
Uzun	598,1	118,9
Sherobod	3 759,8	78,5
Sho'rchi	665,7	175,5

Eng yuqori hajm,
ming. AQSh dollari

Jarqo'rg'on - 5 111,9

Sariosiyo - 5 036,4

Sherobod - 3 759,8

Eng quyi hajm,
ming. AQSh dollari

Qiziriq - 266,2

Bandixon - 245,4

Boysun - 126,4

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Jarqo'rg'on tumani **19,0** % ulush bilan **5 111,9** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat eksporti tarkibida eng quyi ulushni Boysun tumani **0,3** % ulush bilan **126,4** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.






MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Surxondaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **7 177,8** ming. AQSh dollari qiymatli **8 598,6** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan, **55,4** % ni tashkil etdi. Buning asosida **6 216,0** ming AQSh dollari miqdorida **7 716,4** tonna sabzavot, shuningdek **407,9** ming AQSh dollari miqdorida **483,8** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. 2020- yil davri mos ravishda **12,2** % ni va meva va rezavorlarning pasayish darajasi **21,6** % ni tashkil etdi

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar-fevral)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston, Afg'oniston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston hamda Qozog'iston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.










Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, 2021- yil yanvar-fevral oyida meva va sabzavotlarning umumiy eksportdagi ulushi 26,7 foizni tashkil etdi.





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-fevral)



Davlatlar	ming tonna	ming. AQSh dollari	ulushi, % da *
 Pokiston	831,1	741,8	32,5
 Afg'oniston	886,6	607,6	26,6
 Rossiya Federatsiyasi	498,2	545,2	24,0
 Tojikiston	962,2	166,6	7,3
 Qozog'iston	185,6	85,6	3,8
 AQSH	16,0	68,9	3,0
 Ozarbayjon	12,9	30,3	1,3
 Gruzিয়া	22,0	22,9	1,0
 Polsha	44,4	12,2	0,5

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **43,8 %**), bu Afg'onistonga eksport hajmidan **18,2** baravar ko'pdir.





TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda **7 801,2** ming. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **71,6** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **10,4** % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (**84,1** %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**7,5** %) asosiy ulushni egallagan.


TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, ming. AQSh dollari)



	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Mahsulot nomi	3 600,5	8 710,1	7 801,2
 Paxtadan yigirilgan ip	3 179,1	8 361,0	6 557,7
 Paxtadan gazlamalar	421,4	-	585,6
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	-	51,3	609,7
 Paxta mahsulotlari	-	-	39,8
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	-	-	4,3
 Boshqalar	-	-	4,1
 Gilamlar	-	13,4	-
 Ipak va ipak mahsulotlari	-	284,4	-





DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, ming. AQSh dollari)



		2019- yil	2020- yil	2021- yil
	Xitoy Xalq Respublikasi	2 310,1	7 624,3	6 206,8
	Rossiya Federatsiyasi	326,7	437,6	438,2
	Qozog‘iston	70,2	96,6	283,9
	Turkiya	119,8	196,7	206,1
	Pokiston	22,3	25,3	43,4
	Hindiston	39,2	39,7	42,3
	Qirg‘iz Respublikasi	8,7	13,7	34,7
	Tojikiston	18,8	29,5	33,1

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (**6 206,8** ming. AQSh dollari – **79,6** %), Rossiya Federatsiyasi (**438,2** ming. AQSh dollari – **10,0** %) va Qozog‘iston (**283,9** ming. AQSh dollari – **5,9** %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.





SURXONDARYO VILOYATINING IMPORTI

(2021- yil yanvar-fevral)




2021- yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi **38 264,8** ming. AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **59,6 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**58,8 %**), sanoat tovarlari (**26,2 %**) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**6,9 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-fevralida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **14 289,6** ming. AQSh dollariga kamayib, **38 247,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **17,4** ming. AQSh dollariga yetdi.





SURXONDARYO VILOYATI XSST BOYICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-fevral, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami import	23 968,6	38 264,8	159,6	154,7	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 846,8	2 702,1	48,7	70,2	16,1	7,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 803,0	476,1	281,0	26,4	7,5	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	419,6	181,4	296,8	43,2	1,8	0,5
Hayvon va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	49,5	-	48,9	-	0,2	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	725,1	642,8	51,7	88,6	3,0	1,7
Sanoat tovarlari	7 855,7	16 857,3	143,6	214,6	32,8	44,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	8 464,9	16 234,6	33,7	191,8	35,3	42,4
Turli xil tayyor buyumlar	793,3	1 153,2	16,8	145,4	3,3	3,0





XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-fevral)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	919,8	79,3
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	712,7	131,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	709,3	2,8 m.
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	141,5	8,9
Go'sht va go'sht mahsulotlari	111,4	60,1
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	51,2	46,6 m.
Turli xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlari	46,2	2,8 m.
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	10,0	6,3 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	466,1	39,5
Tabiiy kauchuk (shu jumladan, sintetik kauchuk va qayta ishlangan kauchuk)	9,0	-
Xayvonlar va o'simliklardan olinadigan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tavsiflanmagan	1,0	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	181,4	43,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiy va farmatsevtika mahsulotlari	192,7	104,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	123,5	73,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	117,1	174,9
Organik kimyoviy moddalar	94,0	183,9
Norganik kimyoviy moddalar	43,2	3,1 m.
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	37,2	75,4
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	32,0	57,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	3,0	6,8





XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-fevral)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	13 889,2	2,1 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 567,3	5,8 m.
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall buyumlar	618,4	2,6 m.
Probka daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	339,9	9,0 m.
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	281,4	71,0
To'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar va boshqalar	110,7	77,6
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	44,6	96,5
Rangli metallar	5,9	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	9 966,3	335,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	4 039,8	122,3
Avtomobililar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	2 054,2	111,7
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunolari	107,5	2,1 m.
Boshqa toifalarga kiritilmagan elektr mashinalari ,apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari (boshqa toifalarga kiritilmagan elektr maishiy texnika elektr bo'lmagan qismlari)	38,0	19,0
Kanselariya mashinalari ishlab chiqaruvchi mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uskunolari	25,2	78,3
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish aparaturalari va uskunolari	2,7	47,2
Metallni qayta ishlash uchun mashinalar	0,9	1,4
Turli xil tayyor buyumlar		
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari boshqa joyda tavsiflanmagan	914,6	137,3
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	11,2	111,2
Poyabzal	6,7	60,8
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	1,4	54,1
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	141,3	6,1 m.
Maxsus, ilmiy va boshqaruv asboblari va apparatlari	77,9	129,6






MDH va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushi 28,1:71,9 nisbatni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-fevral, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-fevral oylari yakuni bo'yicha Surxondaryo viloyati tomonidan **32** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Importning uchdan bir qismi **34 230** ming. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan Xitoy Xalq Respublikasi (jami import 40,2 % ulushi), Qozog'iston (16,0 %), Rossiya Federatsiyasi (11,8 %), Germaniya (10,7 %), Turkiya (4,1 %), Tojikiston (3,3 %) va Ukraina (3,3 %) kabi yirik hamkor davlatlarga to'g'ri keladi.



RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR NING ULUSHI
(2021- yil yanvar-fevral, % da)





SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-fevral, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	12464,3	15383,7	68,7	123,4	1	1
Qozog'iston	3054,0	6139,8	62,2	2,0 p.	3	2
Rossiya Federatsiyasi	3437,6	4525,9	185,4	131,7	2	3
Germaniya	68,1	4088,3	44,6	60,1 p.	17	4
Turkiya	1312,7	1559,3	70,3	118,8	4	5
Tojikiston	178,0	1275,2	13,8	77,2 p.	11	6
Ukraina	502,1	1257,9	32,7	2,5 p.	7	7
Pokiston	801,2	932,9	46,1	116,4	5	8
Italiya	593,9	496,0	185,1	83,5	6	9
Eron	449,5	481,9	44,9	107,2	8	10






SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2021- yil yanvar-fevral)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	38 264,8	159,6
Termiz sh.	5 911,9	133,5
tumanlar:		
Oltinsoy	862,6	837,7
Angor	48,7	74,5
Bandixon	-	-
Boysun	350,4	140,5
Denov	3 078,0	101,7
Jarqo'rg'on	659,8	60,1
Qumqo'rg'on	955,7	50,3 m.
Qiziriq	5 633,7	9,4 m.
Muzrabot	8 728,5	4,1 m.
Sariosiyo	2 954,7	165,3
Termiz	7 658,5	128,2
Uzun	321,1	2,8 m.
Sherobod	695,4	37,0
Sho'rchi	248,8	10,2

Eng yuqori hajm,
ming. AQSh dollari

Muzrabot- 8 728,5

Termiz – 7 658,5

Termiz sh. - 5 911,9

Eng quyi hajm,
ming. AQSh dollari

Boysun - 350,4

Uzun - 321,1

Sho'rchi - 248,8

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Muzrabot tumani **22,8** % ulush bilan **8 728,5** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Sho'rchi tumani **0,7** % ulush bilan **248,8** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

